



“Sayyor qabul”da samara bor

2-betda o'qing



Vaqt qiymati

7-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
5-SENTABR
SESHANBA

№ 35 (1395)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



“ADOLAT” milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



“Adolat nashrlari” telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/




Mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida yurtimizning 16 shahrida “Yangi nafas” ommaviy yugurish marafoni o'tkazildi. Adliya vazirligining “Biz birgamiz!” ijtimoiy loyihasi doirasida o'tkazilgan ommaviy yugurish musobaqalariga O'zbekiston nogironlar, Ko'zi ojizlar va Karlar jamiyatlari tomonidan ro'yxati taqdim etilgan nogironligi bo'lgan shaxslar jalb qilindi.

Ta'kidlash kerakki, Prezidentimizning 2018-yil 13-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga asosan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish vazirligining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Shunga ko'ra, Adliya vazirligi O'zbekiston nogironlar jamiyati bilan hamkorlikda nogironligi bo'lgan shaxslarni birlashtirish hamda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2018-yildan boshlab “Biz birgamiz!” ijtimoiy loyihasini amalga oshirib kelmoqda.

Bu galgi marafonda ko'rishda va eshitishda nuqsoni bor hamda boshqa turdagi jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun turdagi nominatsiya bo'yicha bellashishdi. G'oliblar vazirlik tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz



2 HAR BIR UYGA BEPUL HUQUQIY MASLAHAT BILAN

Viloyat adliya boshqarmasi hamda tuman-shahar adliya bo'limlari tomonidan 2023-yil II yarim yilligida jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini ko'zlab sudlarga mingdan ortiq da'vo arizalari kiritildi va murojaatchilar foydasiga 10 milliard 235 million so'm pul mablag'i undirildi.

**"OSILIB" QOLGAN
200 MILLION SO'M**

"Shuhratjon" xususiy firmasi Bag'dod tuman "Guliston" mahalla fuqarolari yig'ini binosida 2022-yil 20-dekabrda rasmiylashtirilgan pudrat shartnomasiga asosan qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi va "Shuhratjon" xususiy firmasi o'rtasida "Guliston" mahallasi binosini ta'mirlash yuzasidan bajarilgan ishlar qiymati haqidagi hisobvraq-fakturaga ko'ra, "Shuhratjon" xususiy firmasi tomonidan 200 million so'm miqdorida ta'mirlash ishlari bajarilgan. Biroq belgilangan mablag'ni ololmay oylar davomida sarson bo'lgan.

2023-yil 28-aprelda bo'lim va xususiy firma o'rtasida bajarilgan ishlar bo'yicha solishtirish dalolatnomasi tuzilgan. Biroq haqdor xususiy firma tomonidan 2023-yil 3-aprelda qarzdorlikni to'lash yuzasidan yuborilgan talabnomaga javobgar tomonidan to'lashga imkoni yo'qligi bahona qilinib, javob xati yozish bilan chegaralangan. Prezidentimizning tegishli farmoniga ko'ra, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tugatilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limiga o'tkazilgach, 200 million so'm o'rtada "osilib" qolavergan.

**"Sayyor qabul" da****SAMARA BOR**

Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi va tizimdagi idoralar mas'ullari tomonidan o'tkazilgan shaxsiy qabullarda 4 ming 349 ta, "Sayyor qabul"larda esa 1 ming 474 ta murojaat qilingan.

"Shuhratjon" xususiy firmasi rahbarining Bag'dod tuman adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganilib, adliya bo'limi tomonidan tadbirkor manfaatini ko'zlab Rishton tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan tadbirkor foydasiga tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limidan 200 million so'm mablag' undirilishi belgilandi.

**55 MILLION SO'M ISH HAQI
UNDIRILDI**

Furqat tuman adliya bo'limi tomonidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasida Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 1-apreldagi

"Obodonlashtirish boshqarmasi xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi monitoring asosida o'rganildi.

O'rganish davomida tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mazkur qarorning 12-bandida qabriston nazoratchilariga 4-razryadda oylik haqi ko'rsatilgan bo'lishiga qararasdan, boshqarma tomonidan 2-razryadda ish haqi to'langani ma'lum bo'ldi. Vaholanki, Mehnat kodeksining 244-moddasida "Ish beruvchining o'z moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq xodimlar tomonidan bajarilgan ish uchun haq to'lashni amalga oshirish" belgilab qo'yilgan.

O'rganish yuzasidan tuman adliya bo'limi tomonidan Obodonlashtirish boshqarmasiga taqdimnoma kiritilib, tumandagi 61 nafar qabriston nazoratchilariga 2023-yil uchun 55 million 109 ming so'm to'lanmay qolgan ish haqi undirib berildi.

SHE'R**O'G'RISI JAVOBGARLIKKA
TORTILADIGAN BO'LDI**

Mualliflik va turdosh huquqlarning mamlakatimizda himoyalani ijdokorlar uchun andishaning otini qo'rqoq qo'ymaydigan yangi davrni boshlab berdi. Nima uchun biz aynan andisha haqidagi fikrni qo'lladik?! Sababi oddiy. Ijdokorlar tabiatan halim, birovning dilini og'ritmaydigan toifa. Aksariyat ijod ahlining mualliflik huquqlari poymol bo'lsa-da, foydalanuvchilarga yo'l beradi, uncha-munchaga shikoyat qilishni o'ziga ep ko'rmaydi.

Xursand bo'ladigan jihati shundaki, keyingi vaqtlarda ular ham o'z muallifligini himoyalashni o'rganayapti.

Masalan, Otabek Tillayevning "Dorisi yo'q jannatlarga ketgan bolam" she'rini o'qisangiz, sel bo'lasiz. Yaxshi ijod mahsuli. Ana shu asarni fuqaro Shaxzodbek Rahmonov muallifning ruxsatisiz, so'ramasdan yoki shartnoma tuzmay ijro etib, o'zining Youtubedagi sahifasi orqali barchaning e'tiboriga havola qiladi. Muallifning bu "o'g'rilikka" tegishli chora ko'rish to'g'risidagi murojaati viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganildi.

O'rganish yakuni yuzasidan Farg'ona tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro Sh. Rahmonovga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-moddasi birinchi qismi bo'yicha ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.



Fuqarolik kodeksining 1116-moddasiga asosan, meros fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi. Meros qoldiruvchining o'lgan kuni (zarurat bo'lganda payti ham), u vafot etgan deb e'lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sudning qarori kuchga kiradigan kun meros ochilgan vaqt deb hisoblanadi.

KIMLAR MEROSXO'R BO'LISHI MUMKIN?

Fuqarolik kodeksining 1118-moddasiga asosan, meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalari vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishi mumkin.

Meros ochilgan paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishi mumkin.

Agar biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo'lgan shaxslar bir sutka (yigirma to'rt soat) ichida vafot etgan bo'lsa, ular bir vaqtda vafot etgan deb hisoblanadi, meros ularning har biridan keyin ochiladi va ulardan har birining merosxo'rlari vorislikka chaqiriladi.

BIRINCHI NAVBATDAGI MEROSXO'RLAR

Meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradi.

IKKINCHI NAVBATDAGI MEROSXO'RLAR

Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek, uning ham ota, ham ona tarafidan bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi.

UCHINCHI NAVBATDAGI MEROSXO'RLAR

Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi.

TO'RTINCHI NAVBATDAGI MEROSXO'RLAR


Meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham shunga kiradi) bo'lgan boshqa qarindoshlari qonun bo'yicha to'rtinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega

Meros – marhumdan vorislarga qolgan mulk bo'lib, marhumning mulk huquqi, boshqa ashyoviy huquqlar, aqliy faoliyat (kashfiyot, ixtirochilik, mualliflik) natijalariga bo'lgan alohida huquqlari, shuningdek, bu huquqlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ajdodlardan avlodlarga o'tuvchi mulk hisoblanadi.



VAFOT ETGAN SHAXSDAN QOLGAN MOL-MULKNI

meros qilib olish tartibi



bo'ladi, bunda yaqinroq qarindoshlar uzog'roq qarindoshlarga nisbatan meros olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi. Vorislikka chaqiriladigan to'rtinchi navbatdagi vorislar teng ulushlarda meros oladi.

BESHINCHI NAVBATDAGI VORISLAR?

Meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, agar ular Fuqarolik kodeksining 1141-moddasi asosida meros olmasalar, qonun bo'yicha beshinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi.

MEROSNI OCHISH VA TAQSIMLASH UCHUN QANDAY ASOS MAVJUD?

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan qarori bilan tasdiqlangan "Notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomani berishning ma'muriy reglamentiga asosan meros ishini ochish va meros to'g'risidagi guvohnoma berish tartibiga solinadi.

Mazkur reglamentning talabiga asosan, fuqaroning talabiga ko'ra, meros bilan bog'liq notarial harakatlarni rasmiylashtirish notarial binoda yoki sayyor tartibda meros qoldirilgan mulk joylashgan hududda amalga oshirilishi mumkin.

MUROJAAT QILISH TARTIBI QANDAY?

Murojaat qiluvchi notarial idoraga o'zi kelib yozma ariza bilan yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud "E-notarius.uz" axborot portali

orqali ro'yxatdan o'tgan holda elektron tarzda murojaat qilishi mumkin.

GUVOHNOMA BERISH TARTIBI

Meros ochilgan joydagi notarius merosxo'rlarning yozma arizasiga ko'ra guvohnoma berishi lozim bo'ladi. Bunda, Reglament talabiga asosan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin beriladi. Istisno tariqasida, qonun bo'yicha meros olinganida ham, vasiyatnoma bo'yicha meros olinganida ham, agar notarius tegishli mol-mulkka yoxud butun merosga nisbatan guvohnoma berishni so'rab murojaat etgan shaxslardan boshqa merosxo'rlar yo'qligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lsa, guvohnoma yuqorida ko'rsatilgan muddat tugamasidan oldin berilishi mumkin.

MEROSNING OCHILISH JOYI QAYER BO'LADI?

Merosning ochilish joyi deb meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan (doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan) joyi hisoblanadi. Agar meros qoldiruvchining oxirgi yashab turgan joyi noma'lum bo'lsa, meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk yoki uning asosiy qismi turgan joy, ko'chmas mulk bo'lmagan taqdirda esa, ko'char mulkning asosiy qismi turgan joy meros ochilgan joy deb hisoblanadi.

Meros qoldiruvchining oxirgi yashagan joyi MDHga a'zo davlatlar yoki boshqa chet el davlatlaridan

birida bo'lgan taqdirda, fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlar bo'yicha yordam hamda huquqiy munosabatlarni to'g'risida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan notarius meros ochilgan joy bo'yicha notariusga murojaat etgan merosxo'rlar doirasini tekshirib, meros qilib qoldirilgan ko'chmas mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan joyi bo'yicha guvohnoma beradi, meros qilib qoldirilgan ko'char mol-mulkka nisbatan guvohnoma meros qoldiruvchining oxirgi yashagan joyi bo'yicha beriladi.

MEROS TO'G'RSIDAGI GUVOHNOMA OLIISHDA QANDAY HUJJATLAR TALAB QILINADI?

Notarius, qoida tariqasida, quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

- meros qoldiruvchining o'lim haqidagi guvohnoma yoki daloltnoma yozuvidan ko'chirma;
- meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan joyi haqidagi ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi yoki uy daftaridan ko'chirma;
- meros tarkibining meros qoldiruvchiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjat (bunda meros agar ko'chmas mulk bo'lsa, kadastr ma'lumotnomasi);
- merosxo'rlarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomalari (F.I.O. o'zgaragan taqdirda) yoki daloltnoma yozuvaridan ko'chirmalar yoxud qarindoshlik munosabatlari haqiqiylikni belgilovchi sud hujjati;
- merosxo'rlar vafot etgan taqdirda o'lim haqidagi guvohnoma yoki daloltnoma yozuvidan ko'chirma;
- meros qoldiruvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomasi (ajrashganlik haqidagi guvohnoma) yoki daloltnoma yozuvidan ko'chirma.



4 JARAYON

YER UCHASTKALARI
IJARASI:XORIJIY TAJRIBA VA
MILLIY AMALIYOT

● XORIY TAJRIBASI

Xorijiy mamlakatlarda yerni ijaraga berish ijara shartnomasi bilan tartibga solinadi. Mazkur shartnoma ijara muddati davomida tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Xususan, Ozarbayjon Yer kodeksi 51-moddasida yer uchastkasini ijaraga olish huquqiga oid qoidalar belgilangan. Unga ko'ra, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi deganda yerdan shartnoma asosida haq evaziga foydalanish tushuniladi. Yer uchastkalari Ozarbayjon Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslariga, chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, xorijiy yuridik shaxslarga, xalqaro birlashma va tashkilotlarga, shuningdek, xorijiy davlatlarga ijaraga beriladi. Davlat mulki bo'lgan yerlarning ijaraga beruvchisi sifatida tegishli ijro hokimiyati organlari, munitsipalitetlar mulki bo'lgan yerlarning ijaraga beruvchisi sifatida shahar hokimiyati, xususiy mulkdagi yerlarning esa mulkdorlari ishtirok etadi. Ijaraga berish shartlari, muddatlari va lizing to'lovi tomonlarning o'zaro roziligi bilan belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tomonlar imzolagan shartnoma bilan tasdiqlanadi. Ijaraga oluvchi ijaraga olingan yer uchastkasini mulkdorning ruxsati bilan boshqa shaxsga subijaraga (ikkilamchi ijaraga) berishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasi Yer kodeksi 35-moddasida ham fuqarolar va yuridik shaxslarga yer uchastkasi vaqtincha haq to'lanadigan yerdan foydalanish (ijara) yoki vaqtincha tekin yerdan foydalanish huquqi bilan berilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Xorijiy davlatlarda shakllangan yer uchastkalarini ijaraga berish tizimidagi asosiy farqlardan biri yer ijarasi shartnomalarining amal qilish muddati (uzoq va qisqa muddatli) hisoblanadi.

Mamlakatimizda yer ijarasi bilan bog'liq munosabatlar Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, "Ijara to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Jumladan, Yer kodeksining 24-moddasiga ko'ra, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari quyidagilarga ijara huquqi asosida beriladi:

- **jismoniy va yuridik shaxslarga** – viloyat va Toshkent shahar hokimining ochiq elektron tanlov natijalarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori bilan;
- **davlat ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalariga** – Vazirlar Mahkamasi tomonidan qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun (Qishloq xo'jaligi vazirligining taklifiga ko'ra);
- **agrosanoat klasterlariga** – Vazirlar Mahkamasi tomonidan yer uchastkasi normativ qiymatining ikki baravaridan ortiq miqdordagi pul mablag'lari depozitga qo'yilgan taqdirda (Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyat hokimining taklifiga ko'ra);
- **yirik investitsiya loyihasini amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga** – Vazirlar Mahkamasi tomonidan qiymati kamida 10 million AQSh dollari ekvivalentida bo'lgan, eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari

quyidagilarga ijara huquqi asosida beriladi:

- **jismoniy va yuridik shaxslarga** – elektron onlayn-auksion asosida;
- **yirik investitsiya loyihasini amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga** – Vazirlar Mahkamasi tomonidan qiymati kamida 10 million AQSh dollari ekvivalentida bo'lgan, eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan aniqlanadi.
- **chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet el jismoniy va yuridik shaxslariga** – Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijaraga beriladi.

Ushbu moddaga ko'ra, shartnomalar quyidagi muddatlariga tuziladi:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar o'ttiz yil muddatga ijaraga beriladi;
- qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarni ijaraga berish muddati yuz yildan ortiq bo'lishi mumkin emas;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet el jismoniy va yuridik shaxslariga yer uchastkalari yigirma besh yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga beriladi.

Yer uchastkalarini ijaraga berish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

● TAKLIF

Bugungi kunda qonunchiligimizda mustahkamlangan yer ijarasi tizimi xorijiy davlatlar amaliyotiga mos keladi. Yer uchastkalarini ijaraga berishni subyektlar turiga yoki boshqa maqsadlarga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq emas. Bunday tasniflash Fuqarolik kodeksining umumhuquqiy prinsiplariga zid keladi va bozor munosabatlarning rivojlanishi sharoitida ijara munosabatlari doirasini cheklab qo'yishi mumkin.

Yer uchastkalarini ijaraga berishni elektron onlayn-auksion asosida amalga oshirish yo'lga qo'yilishi munosabati bilan agroklastlar, iqtisodiy sanoat zonlari, davlat-xususiy sheriklik tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlariga yerni doimiy foydalanish huquqi bilan ijaraga berishda ham elektron onlayn-auksion imkoniyatlaridan keng foydalanish taklif etiladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berish muddatlarini maqbullashtirish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Yer uchastkalarini ijaraga berish mexanizmini takomillashtirishda, jumladan, tizimda mavjud korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etishda yer uchastkalari uchun ijara to'lovini bozor qiymatiga mos ravishda belgilash lozim.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini yer ijarasi va ko'chmas mulk solig'idan tushadigan mablag'lar hisobidan ko'paytirish choralarini ko'rish lozim.

Masalan, ko'plab davlatlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berish uzoq muddatga tuziladi. Bu fermerlarning tashqi muhit, jumladan, iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitlaridagi o'zgarishlarga javob berish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, fermerlardan ko'pincha yer va boshqa resurslardan foydalanish, korxonalar turi va fermer xo'jaligini kengaytirishga qaratilgan kapital qo'yilmalar bo'yicha uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilish talab etiladi.

Shotlandiyada 2003-yilgi qonunga muvofiq qishloq xo'jaligi ijarasining to'rtta shakli mavjud:

- 1991-yildagi Qishloq xo'jaligi xoldinglari qonuniga muvofiq yangi "an'anaviy" qishloq xo'jaligi ijarasi;
- 364 kundan ortiq bo'lmagan muddatga beriladigan o'rim-yig'im ijarasi;
- 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladigan qishloq xo'jaligi ijarasi. Yerdan samarali foydalanish ijara muddatini yana 15 yilga uzaytirish imkonini beradi;
- yer ijarasining standart shakli – ushbu shartnomalar kamida 15 yil muddatga tuziladi, lekin kelishilgan holda uzoqroqqa cho'zishi mumkin.

Fransiyada yer ijarasining minimal muddati 9 yil hisoblanadi. 18 va 25 yillik uzoq muddatli ijara tizimi ham amal qiladi.

Qisqa muddatli yer ijarasi ham ba'zi davlatlarda ko'p qo'llaniladi. Masalan, Irlandiyada o'ziga xos qisqa muddatli yer ijarasi tizimi shakllangan. Bunda yer 11 oy yoki 1 yil muddatga fermerlarga beriladi. Hozirgi vaqtda Shimoliy Irlandiyada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning 3/1 qismi shunday shartnomalar asosida ijaraga berilgan.

Shuningdek, yer ijarasi tizimidagi yana bir farqlardan biri bu yerlarni ijaraga olishni rag'batlantirishdir. Masalan, Slovakiyada fermerlar Yevropa CAP fondlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun yerni kamida besh yilga ijaraga olishlari talab qilinadi. Bu esa fermerlarni uzoqroq muddatga (o'n yilgacha) shartnomalar imzolash uchun rag'batlantiradi. Belgiyada ijarachi fermerlarni hi-

moya qilish va uzoq muddatli yer ijarasini rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan siyosatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: imtiyozli sotib olish huquqi, ijarachi fermer uchun ijarani avtomatik ravishda yangilash, fermer nafaqaga chiqqanda, ijara shartnomalarini dehqonchilik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan oila a'zolariga o'tkazishga ruxsat berish.

Yer ijarasi tizimi yerga bo'lgan huquqning doirasiga ko'ra ham farq qiladi. Masalan, Avstraliyada boshqa shaxsga, kompaniyaga yoki boshqa tashkilotga ko'chmas mulkni to'liq sotib olmasdan cheklangan vaqt davomida egallashga imkon beruvchi ikkita asosiy turdagi kelishuv mavjud:

– birinchisi, kelishilgan muddatga mulkka mutlaq egalik qilish huquqini beruvchi ijara. Ijara ijarachiga shartnomada ko'rsatilgan muayyan cheklavlarni hisobga olgan holda mulkiy ulush va mulk huquqini beradi.

– ikkinchisi, mulkka egalik qilishga ruxsat beruvchi litsenziya. Ijaradan farqli ravishda, litsenziya bo'yicha mulk egasi mulkka mutlaq egalik qilmaydi va odatda litsenziyani uchinchi shaxsga o'tkaza olmaydi. Odatda, litsenziyalar tegishli davlat organlarida davlat reyestrda ro'yxatga olinmaydi.

NAMANGAN

MEHNET HUQUQI

JIZZAX

Yangiqo'rg'on tuman adliya bo'limi tomonidan tadbirkor Q. Homidovning murojaati o'rganib chiqildi.

QARZDORLIK UNDIRILDI



Murojaatda MChJ tomonidan sobiq Kosonsoy tuman maktabgacha ta'lim bo'limi bilan tuzilgan shartnomaga asosan tuman maktabgacha ta'lim bo'limi binosini mukammal ta'mir-

lash ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq hozirgi kunga qadar bo'lim tomonidan qarzdorlik to'lanmay kelinayotgani, ushbu haqdorlikni undirish yuzasidan amaliy yordam berish so'ralgan.


Ma'lum bo'lishicha, MChJ va Kosonsoy tuman maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasida 2021-yil 21-sentyabrda "Kapital qurilish, qurilish ta'mirlash va pudrat ishlarini bajarish to'g'risida"gi 540 million 975 ming 214 so'mlik hamda 2021-yil 21-sentabrdagi 123 million 158 ming 566 so'mlik 2 ta shartnoma tuzilib, jamiyat tomonidan shartnoma talablari bo'yicha mukammal ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgan. Biroq Kosonsoy tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan hozirgi kunga qadar 664 million 133 ming 780 so'mlik qarzdorlik to'lanmagani.

Tuman adliya bo'limi tomonidan Yangiqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning qaroriga muvofiq tadbirkorga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'i undirib berildi.

Sherali PARPIBOYEV,
Yangiqo'rg'on tuman adliya bo'limi boshlig'i

2022-yil 3-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Aliment to'lovlari jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan Majburiy ijro byurosida yuridik shaxsni tashkil etmagan holda "Aliment to'lovlari" davlat maqsadli jamg'armasi faoliyati tashkil etilgan.

ALIMENT QAYSI HOLATDA JAMG'ARMA TOMONIDAN QOPLANADI?



Ushbu jamg'armaga Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 50 milliard so'm o'tkazilgan.

Hujjat bilan Jamg'arma mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini, shu jumladan Jamg'arma mablag'lari hisobidan aliment to'lovlaridan qarzdorlik to'lanadigan holatlar va shaxslar toifasini belgilashni nazarda tutuvchi "Aliment to'lovlari jamg'armasi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Nizomga ko'ra, jamg'arma mablag'lari voyaga yetmagan farzandini moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun qarzdor jinoyat javobgarlikka tortilgan taqdirda, aliment to'lovlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni (ushbu jinoyat natijasida yetkazilgan zararni) qoplab berishga (biryola undiruvchiga to'lab berishga) yo'naltiriladi.

Anvar ERGASHEV,
Baxmal tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

SIRDARYO

O'QITUVCHINING MAQOMI TOBORA YUKSALIB BORMOQDA

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida eng obro'li kasblardan biri bu - o'qituvchilikdir. Ilim-ma'rifat qadr topgan yurtimizda ziyolilar, xususan, o'qituvchi va murabbiylarning maqomi ham tobora yuksalib bormoqda.



Mazkur sharaflil kasb sohiblari mehnati yangilangan konstitutsiyamizda ham o'z aksini topdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi", deya o'qituvchilarning maqomi yanada mustahkamlab qo'yildi.

Shu o'rinda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bi-

lan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom"ga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Nizomning 33-bandida "Umumta'lim muassasalarini xodimlariga moddiy yordam kalendar yil davomida ikki lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha xodimning o'zi va yaqin qarindoshi (otasi, onasi, turmush o'rtog'i, farzandi) vafot etganda, og'ir kasallikka chalinganda, xodim tabiiy ofatdan zarar ko'rganda ko'rsatiladi", deya qayd etilgan.

Amaliyotda xodim yoki uning yaqin qarindoshi og'ir kasallikka chalinganda qo'yilgan tashhis va unga beriladigan moddiy yordamning miqdori borasida ba'zi bir aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan masalalar kelib chiqmoqda. Masalan, ko'p uchraydigan kasal-

liklarga: umurtqalari osteoxondrozi, old va orqa qin kolporofiyasi (jarrohlik amaliyoti), laporotomiya bachadon va tuxumdonlar qin usti amputatsiyasi (jarrohlik amaliyoti), o'tkir appenditsit (ko'richak) (jarrohlik amaliyoti), buyrak transplantatsiyasi (jarrohlik amaliyoti), o't qopini zararli toshlardan ajratish (jarrohlik amaliyoti) va hokazo xastalıklar tashhisi qo'yilgan pedagog xodimlarning hujjat loyihalari maktablardan yuridik markazlarga xulosa olinishi uchun yuborilganda tibbiyot birlashmasi tomonidan berilib, ilova qilingan tibbiy ma'lumotnomalarning yakuniy xulosasida bemorning umumiy ahvoli og'irligi (og'ir jarrohlik amaliyotini yoki onkologik kasallik asoratlarini boshidan kechirgan bo'lsa ham) sezilib tursa-da, aksariyat hollarda unga "og'ir kasal" tashhisi qo'yilmayotgani ayon bo'lib qolmoqda.

Bunday holat ba'zan ziddiyatlar va noaniqliklarga sabab bo'lmoqda. Konstitutsiyaning 20-moddasida "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi" deb belgilanganini inobatga olib, ayrim hollarda o'ta og'ir jarrohlik amaliyotlarini boshidan o'tkazgan xodimlarga yuqoridagi normani qo'llashga to'g'ri kelmoqda.

Tilga olingan kasalliklar ko'proq ayollarda sodir bo'lmoqda. Taniqli

mutafakkir Doroti Sayers "Bir haqiqatni unutmang - buyuk kishilar ortida buyuk onalar yoki fidoyi rafiqalar turgan bo'lishadi" deb ta'kidlaganida mutlaqo haq edi. Shundan kelib chiqqan holda, hukumatning yuqoridagi nizomi 33-bandiga quyidagicha o'zgartirish kiritish lozim deb hisoblayman: "Og'ir kasallikka chalinganda" degan jumladan keyin (tumanlararo, tuman (shahar) va ixtisoslashtirilgan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining "og'ir kasal" deb qo'yan tashhisi asosida) degan jumla bilan to'ldiriladi.

"Ikki lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha" degan jumla "Ikki lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorida" deb belgilanishi maqsadga muvofiq. Chunki aksariyat maktab direktorlari xodimga moddiy yordam berishda bir lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorida oshirishmaydi. Bu holatda xodim imkoniyatidan to'laqonli foydalana olmay qoladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi - ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi. Ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Baxtiyor QO'SHBOQOV,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

6 BONG

JINOYAT VA JAZO

Shu yilning 14-may kuni tungi soat 01:00larda Andijon shahrining "Mash'al" mahallasidagi ko'p qavatli uylarning birida qiy-chuv ko'tarildi. Ya'ni, bir erkakning baqirib javragani, ayol kishining dod solib qichqirgani o'sha hududdagi qo'ni-qo'shnilarning tinchini buzdi. Erta-si kuni esa mazkur holat fuqaro Sh. Valiyev (ism-shariflari o'zgartirilgan) xonadonida yuz bergani ayon bo'ldi.

ZO'RAVON ER JAZOGA TORTILDI

Avvalo, Sh. Valiyevning oilasi haqida ikki og'iz so'z. Uning rafiqasi D. Hoshimjonova muqaddam boshqa shaxs bilan turmush qurib, keyinchalik ajrashgani. Qolaversa, u begona erkaklar ko'p tashrif buyuradigan joyda – shifoxonada ishlardi. Shu bois, Shodiyor rashk tufayli kunda-kunora janjal chiqaraverar va ba'zan ayolini kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqorat ham qilardi. Hatto, bu xurmacha qiliqlari tufayli 2023-yil 16-mart kuni jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudi tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasi (Haqorat qilish) va 52-moddasi (Yengil tan jarohati yetkazish) bo'yicha 1 million 500 ming so'm jarima jazosiga ham tortilgandi. Ammo Sh. Valiyev bundan o'ziga tegishli xulosa chiqarmadi.

Aniqlanishicha, 2023-yil 13-may kuni ertalab D. Hoshimjonova ishga ketadi. Biroq xo'jayini uxlab yotgani bois unga indamay, uydin chiqadi. Kechqurun ishdan qaytganda esa Shodiyor diydiyosini boshlaydi. – Nega menga indamay ishga ketding? – deya o'shqiradi xotiniga.

So'ng og'zidan bodi kirib, shodi chiqqan holda Dil-fuzani haqoratlaydi. Bu paytda soat tungi 23:00dan oshgandi. Bu ham yetmagandek, o'jizaning yuzi, peshonasini, burniga bir necha marotaba urib, do'p-poslaydi. Garchi, D. Hoshimjonova yordam so'rab baqirsa ham, tun yarmida er-xotinning janjaliga hech kim aralashmaydi. Natijada u bosh miya yopiq shikasti, bosh miya chayqalishi, burun suyagining yopiq sinishi, yuz va tanasi yumshoq to'qimalarining lat yeyishi singari jarohatlar oladi. Ayni holat sud-tibbiy ekspertizasining 2023-yil 24-maydagi xulosasi bilan tasdiqlangan. Binobarin, Sh. Valiyevga nisbatan jinoyat ishi qo'zgatiladi.

Yaqinda mazkur ish jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudida ko'rib chiqildi. Sud uni Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topib, qonuniy jazoga mahkum etdi.

Ma'lumki, 2023-yil 11-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniy qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida II ta kodeks va qonunga, jumladan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ham, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Jinoyat kodeksi "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" deb nomlangan 126-modda bilan to'ldirildi. Endi oilaviy zo'ravonliklar jazosiz qolmaydi.



Muhayyoxon TURDIYEVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar
sudi sudyasi

Jahon miqyosida ham globalizatsiya va integratsiya jarayonlari ro'y bermoqda. Bu esa barcha sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratadi, albatta. Bu jarayonda xorijiy tillar tobora yuqori ahamiyat kasb etadi. Ular til o'rganuvchilarga nafaqat tilni bilish va o'rganilayotgan tilda fonetik, leksik va grammatik jihatdan to'g'ri muloqot qilishni taqozo etibgina qolmay, balki tili o'rganilayotgan mamlakat xalqining urf-odatlarini, an'ana-yu marosimlari, geografiyasi, tashqi va ichki siyosati, tarixi kabi sohalarni o'rgatish vazifalarini ham qamrab oladi. Yana muhim ta'lim obyektlaridan biri xorijiy til vositasi bilan muloqot qiluvchi (til sohibi)ning individual xususiyatlari va hayotiy kechinmalarini hisobga olgan holda madaniyatlararo muloqot qilishga tayyorlashdir.

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda xorijiy tillarni o'rganish yanada takomillashtirilmoqda. Yoshlar o'rtasida xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bunga davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi uchun chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or interfaol usullarini qo'llash ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mustaqil mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar keng quloch yozayotganligi bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning chet tilini mukammal bilish zaruriyatini tobora oshirmoqda.

Bilim ostonasi bo'lmish maktab inson hayoti davomida egallaydigan ilmlar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Zero, "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir". Shu naqlning amaliy ifodasi sifatida so'nggi yillarda maktab ta'limi va oliy ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.


Ta'lim bunyodkori bo'lmish mutaxassis pedagog kadrlarga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu sohada amalga oshiriladigan ishlar samaradorligi bevosita ushbu sharafli kasb egalari bo'lmish o'qituvchilarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Mamlakatimizda xorijiy til ta'limini rivojlantirish borasidagi islohotlarning ijrosini taminlash maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti Xorijiy tillar kafedrasini tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'ringidagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirgan bir qator universitetlar bilan aloqalar o'rnatildi. Universitetning barcha xodimlari va talaba yoshlar uchun IELTS kurslari yo'lga qo'yildi. Universitetda haftanang har chorshanba kuni "Xorijiy tillarni o'rganishni keng ommalashtirish kuni" deb e'lon qilingan.

Kafedrada xalqaro sertifikatlariga ega 25 ta xorijiy til mutaxassislari mavjud. Darslar ingliz, fransuz

Ta'lim shunday jarayonki, u uzluksiz yangilanish va islohotlarni talab etadi. Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq hukumatimiz tomonidan ta'lim sohasini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, o'qitish uslubi tubdan o'zgardir.

TDYUda talabalar uchun IELTS kurslari yo'lga qo'yilgan




va nemis tillarida olib boriladi. Asosiy maqsad – huquqshunos talabalarning kasbiy malakasini oshirishda xorijiy til ko'nikmalarini shakllantirish, huquqiy chet tilini mukammal o'rgatish va xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan huquqshunos kadrlar tayyorlashdir. Bu borada kafedrada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2020/2021 o'quv yilidan universitet Yevropa kredit tizimi asosida faoliyat yuritir ekan, kafedra jamoasi muntazam ravishda dunyodagi top mingtalikka kirgan universitetlar bilan hamkorlik qilib, xalqaro konferensiyalar, vebinarlar o'tkazdi. Xorijiy til mutaxassislari bilan tajriba almashildi. Shuningdek, Arizona universiteti professori Kristofer Kelli, Maribor universiteti professori Tomas Alen Heller, Frankfurt Mayn maktabi direktori Karl Xayns Shtutsel, Germaniyaning Myunxen Texnika universiteti professori Beate Rattay kafedra o'qituvchilari va universitet talabalari uchun ingliz va nemis tillarida mazmunli onlayn va oflayn darslar olib borishdi.

Kafedrada xorijiy tillar bo'yicha turli klublar tashkil qilingan. Kafedra tashabbusi bilan Angliya va Uels huquq jamiyatining xalqaro bo'limi a'zosi bo'lgan Global Legal English bilan hamkorlik olib borilib, Toshkent davlat yuridik universiteti TOLES (Test of Legal English Skills) xalqaro sertifikatiga ega bo'lish uchun imtihan topshirish bo'yicha mamlakatimizdagi birinchi markaz deb tan olindi. Yoshlarni har tomonlama mukammal, komil inson qilib tarbiyalash hamda ta'lim berish biz – pedagoglarning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Shu bois, respublikamizning jahon hamjamiyatidagi nufuzi yanada oshayotgan bir paytda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar rivojida va chet ellik hamkorlar bilan muloqot o'rnatishda har tomonlama salohiyatga ega bo'lgan yosh mutaxassislariga ehtiyoj yanada oshmoqda.

Jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan yoshlarimiz oldidagi vazifalardan biri – mamlakatimizni jahonning eng ilg'or, rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqishlari uchun hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal o'rganib, xalqaro darajadagi yuksak kadrlar bo'lib yetishishlari uchun xorijiy tillarni puxta bilishlari muhim o'rin tutadi. Shundagina O'zbekiston jahonning ko'zga ko'ringan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olishiga, kelajagimizning buyuk bo'lishiga mustahkam zamin yaratiladi.



Sarvara AKOBIROVA,
TDYU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



O'Genri

VAQT QIYMATI

Ota odatdagidek ishdan kech qaytdi. Horg'in, hafsalasiz, pajmura gavdasini arang sudrab ostona hatladi. Bo'sag'ada uni milja qoqmay, ko'zlari to'rt bo'lib kutayotgan 5 yashar o'g'li qarshi oldi.

– Salom, dada! – dedi u quvonchdan ko'zlari porlab.

– Salom, bo'talog'im, haliyam yotmadingmi?

– Yo'q, – deya javob berdi bola va sabrsizlik bilan so'radi. – Dada, sizga savol bersam maylimi?

– Mayli. Qani eshitaylik-chi, oromingi o'g'irlab, allamahalgacha senginani yo'limga intizor qildirgan qanday savol bo'ldi u? – Bir soatda qancha pul ishlaysiz? – ko'zlarini piriqirib, bolalarga xos sodda samimiyat bilan so'radi bolakay.

Kutilmaganda berilgan 5 yashar bolaning savoli otani tong qoldirdi va turib-turib jahlini chiqardi.

– Bemahalda boshqa savol o'ylab topolmadingmi? Qolaversa, bu sening ishing emas, zumrasha!

– Dada, iltimos, aytaqoling, bir soatda qancha pul topasiz? – oyoq tirab oldi bolakay.

Bola hukmi poshshoning hukmidan ustun emasmi, ota qarasa javob bermasa bo'lmaydigan, javdirab tikilayotgan pokiza ko'zlar bilan nigohi baqamti kelganida ko'ngli iyidi va:

– Bir soatda 20 dollar ishlayman,

qo'zim, – deya javob qildi u, bolasining boshini silab.

– Yashasin! – qichqirib yubordi kichkintoy. – Dada, menga 10 dollar qarz berib tura olasizmi?

Bunisi hammasidan o'tib tushdi va darg'azab otaning sabr kosasi to'ldi. U ortiq jahlini yashirolmadi.

– Iye, tag'in nima o'ylab topding? Qayerdagi keraksiz o'yinchoqni sotib olishing uchun dadam 10 dollar beradi, deb o'ylasang, chuchvarani xom sanqabsan, zumrasha! Qani, haziroq o'z o'ringga borib yot va oxirgi paytlarda qanchalar xudbin bo'lib ulg'ayayotganing haqida bosh qotirib ko'r! Men har kuni betinim mashaqqatli mehnat qilaman va jonim halqumimga kelib, arang uyga qaytaman. Sening xarxashalaring va injqliklaringni ko'tarishga tobim yo'q!

Mo'tirab tikilib turgan ko'zlarga yosh qalqadi. Bolakay indamay ortiga o'girildi. Charchagan ota dam olgani o'rniga cho'zildi, biroq har qancha horigan, jismonan ezilgan bo'lmasin, hadeganda ko'zlariga uyqu inmadidi. Asablari dosh bermay, bolasiga baqirgani uchun ko'ngli buzildi. "Tun yarmigacha uxlamay, topgan savolini qarang. Qiziq, 10 dollar unga nega kerak bo'lib qoldiykin?" Shu tariqa oradan bir soat o'tdi. Ota u yoniga ag'darildi, bu yoniga ag'darildi,

lekin ko'zlari yumilmadi. Bu turishda saharga dovur uxloimasligini anglab, o'rnidan turdi. Hovuridan tushgan ota sokin o'y surar ekan: "Chindan ham, bolam shu 10 dollarga muhtoj bo'lsa-chi? Men jigargo'shamning gapini eshitmay turib, shuncha kutganiniyam yuzxotir qilmay urishib berdim", deya ko'ngli xijil bo'ldi.

U o'g'lining xonasi tomon yo'naldi. Eshikni sekingina ochib:

– Uxlaysanmi, bolajonim? – deb so'radi.

– Yo'q, uyg'oqman, dada.

– Senga nisbatan nohaqlig qattiqqo'llik qilganimni tushundim. Shuning uchun bo'lsa kerak, uxloymayapman. Mendan ranjimadingmi? Ba'zan kattalar ham xato qiladilar. Mana senga 10 dollar, endi eski ginalarni unutamiz.

Bola pulni qo'lga ham olmay, chopqillab borib, yostig'ining ostidan bir dasta g'ijimlangan pullarni chiqardi. O'g'lining harakatlarini sukut saqlab kuzatib turgan ota hayratda edi.

– Shuncha puling bor ekan, mendan tag'in 10 dollar so'raganing nimasi, bo'talog'im?

– Pulim borlikka bor ediku-ya, ammo yetmasdi-da! Mana endi 20 dollarim bor. Dada, men bir soat vaqtigizni sotib olmoqchiman. Ertaga uyga vaqtiroq keling, sizni kutaman...

Farovon turmush tarzining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi eng muhim omillardan biri bu – mulkdir. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 65-moddasi "Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi" deb belgilanganini e'tirof etish lozim.

MULK HUQUQI DAXLSIZDIR

Bu yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham o'z aksini topgan



E'tiborli jihati, davlat mulkning xilma-xil shakllari zamidida bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash orqali fuqarolar farovonligini oshirishga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganidir. O'z navbatida, mulkiy munosabatlar qonunlar bilan tartibga solinadi va ularning ta'siri ostida mulkiy huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda xususiy mulk huquqi shaxsning qonuniy tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi bo'lib, uning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyamizning yuqoridagi moddasida xususiy mulk daxlsizligi, mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaro-

riga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan. Endilikda, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda sodir bo'lgan yangilanishlar aks-sadosi talqinida xususiy mulk na-faqat shaxslarning (fuqarolarning) boyligi va moddiy mustaqilligi, balki ma'naviy erkinligining ham manbai sifatida baholanadi.

Xususiy mulkka nisbatan belgilangan "daxlsizlik va davlat himoyasida bo'lishlik" xususiy mulk huquqini himoya qilish choralari orasida o'ziga xos o'ringa ega. "Daxlsizlik" deganda, shaxsning o'ziga yoki muayyan huquqlariga nisbatan qonunga zid bo'lgan xatti-harakatlar bilan u yoki bu darajada ta'sir o'tkazishni taqiqlovchi qonuniy choralar majmui nazarda tutiladi.

Xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo'lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog'liq manfaatlariga har qanday putur yetkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo'lishidan qat'i nazar faqatgina qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina bekor qilinishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulk daxlsizligi mazmunini ifodalaydi.

Mulk daxlsizligi tamoyili oliy yuridik

kuchga ega bo'lib, fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida boshqa shaxslarning, davlat hamda jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Demak, mulkdor o'zining mulk huquqi kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishni, shuningdek buzilgan huquqlarini tiklashni talab qilish huquqiga ega.

Mulkdor mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina, ya'ni mulkdorning ixtiyoriy sur'atda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori yoki davlat hokimiyati organi qarori asosida mol-mulkn olib qo'yish (sotib olish) yo'li bilan (masalan, musodara, rekvizitsiya), shuningdek mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan (masalan, natsionallizatsiya) mahrum etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlar Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lining iqtisodiy negizlarini belgilab beradi. Davlat iqtisodiyotining asosini tashkil qiluvchi xilma-xil mulk shakllari, jumladan fuqarolarning mulk huquqi daxlsizligini kafolatlaydi.

8 ADLIYA FAXRIYLARI



TO'XTAJON OPA KASBIDAN BAXT TOPGAN

Bir ayol baxti uchun nima kerak bo'lsa hammasiga erishgan, oila va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topgan bu ayol To'xtajon Sultonova. U 1953-yilda Urganch shahrida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, 1980-yildan 1987-yilgacha Urganch shahar sudida sud majlisi kotibasi, Xorazm viloyat partiya qo'mitasida statist, viloyat advokatlar kollegiyasida advokat bo'lib ishlagan. 1987-1995-yillar davomida Urganch shahar sudining sudyasi lavozimida mehnat qilgan talabchan va tinib-tinchimas huquqshunos sud-huquq tizimida yetarli tajriba to'pladi. O'qidi, izlandi, ustozlardan o'rgandi, qiyinchiliklariga qaramasdan sevimli kasbiga sodiq qoldi, ko'pchilik havas qilsa arziydigan adolat posboniga aylandi.

T. Sultonova 1995-yildan viloyat adliya boshqarmasi FHDY bo'yicha yetakchi maslahatchisi, boshqarma boshlig'i o'rinbosari vazifalarida xizmat qildi.

1997-yildan 2011-yilga qadar Urganch shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudiri sifatida, qator yillar Urganch tuman FHDY bo'limi mudiri lavozimida faoliyat olib bordi.

To'xtajon opa qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, fidoyiligi, adolat tarafdori ekani bilan jamoa va jamoatchilik o'rtasida katta hurmat va e'tibor qozondi. Odamlarga o'z haq-huquqlarini bilishlariga ko'maklashdi, fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lida bilim va tajribasini ayamadi. Sud va



Insonning kelajagi, baxti, ko'zlagan maqsadiga erishishi, albatta, tanlagan kasbiga, uni qanchalik sevishiga, egalashiga va qadrlashiga bog'liq. Shuning uchun xalqimiz orasida ko'p tilga olinadigan "kasbidan baraka topgan, baxt topgan" degan iborada hayotning katta mazmuni mujassam.

Saodatli umr sohiblari

Yorug' manzillarga yetib kelish, obro' orttirish, qadr-qimmat topish uchun albatta umr bo'yi halol mehnat qilishga to'g'ri keladi. Mehnat faxriysi degan sharafli nomga ega bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Bugun o'z mehnatidan baxt-saodat topgan, sharaf topgan, kasbidan baraka topgan, keksalik gashtini surayotgan insonlar bilan tanishasiz.

advokatura idoralarida xizmat qilgan qator yillar esa unga hayotning turli sir-sinovlaridan saboq berdi. Jinoyatga jazo muqarrarligi, qonunni buzgan odam albatta buning jabrini tortishini hayotiy misollarda ko'rdi. Har gal sud majlisida adashgan, xato qilgan, yosh umrini xazon qilganlarning jinoyat ishlarini ko'rar ekan, ularning ortida oilasi, yaqinlari, voyaga yetmagan farzandlari borligiga achindi, aybdorning ortida qolganlarga yetadigan ozorlar uni tashvishga soldi.

T. Sultonovning adliya organlaridagi faoliyati ham o'ziga xos tajriba maktabi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Insonning quvonchli kunlari - tug'ilish, nikohni qayd etish kabi protseduralarni bajarish unga qanchalik zavq bag'ishladi, qayg'uli hujjatlarni rasmiylashtirayotganda hayotning quvonch va tashvishlari doimo yonma-yon ekanini yana bir karra his etdi, ularga taskin beradigan so'z topdi.

To'xtajon opa bag'ri keng, katta oilada o'sgan, uka-singillarga mehribon opa. Farzandlarga jonkuyar ona. Latofatli va farishtali uy bekasi. Do'stlarga sadoqatli. Mahallada hurmatli.

O'tgan umriga nazar tashlaganda ko'ngli xotirjam bo'ladigan insonni baxtli inson deyish mumkin. To'xtajon opa ham umrining 70-pillapoyalarida turib, o'tgan umriga shukrona keltiradi, ortda qolgan yillarni minnatdor xotirlaydi. Har kimga ana shunday farog'atli xotirjamlik nasib etsin. Umr ana shunday chiroyli vafo qilsin!



ADOLAT POSBONI


Shodiqul Nuriddinovning tarjimai holi uzundan-uzoq emas, ammo hayot yo'li juda ibratli va uzun. U dastlab Toshkent davlat militsiya maxsus maktabini, 1975-yilda esa Toshkent Oliy militsiya maktabini huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha tamomlagan. Mehnat faoliyatini 18 yoshida Samarqand shahar Tajriba sinov zavodida oddiy ishchilikdan boshlagan qahramonimiz harbiy xizmatda yigitlik burchini o'tab qaytgach, 1967-yildan boshlab qariyb yigirma yil davomida Samarqand viloyat ichki ishlar idoralarida xizmat qildi. Yillar davomida ustozlardan kasb sirlarini, tezkorlikni o'rgandi, tajriba orttirdi. Ichki ishlar idorasidagi serg'alva jarayon-

larda chiniqdi, pishdi. Kezi kelganda tunni tongga, tongni tunga ulab ishlashga to'g'ri keldi. Jamoat xavfsizligini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish, aholi osoyishtaligini saqlash, huquqiy profilaktika ishlarini olib borishda Sh. Nuriddinovning munosib xizmatlari bor.

Shodiqul aka 54 yoshida kasbini o'zgartirdi. Garchi, barchasi bir butun huquq-tartibot idoralari deb nomlansa-da, ichki ishlar idorasidan notarial idoraga, ya'ni adliya tizimiga, aniqrog'i, Samarqand shahar Bog'ishamol tuman 4-sonli davlat notarial idorasining davlat notariusligiga o'tdi. Keyin Bog'ishamol tuman 2-sonli davlat notarial idorasi davlat notariusi hamda Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius lavozimida faoliyat yuritdi.

Notariuslik faoliyatining o'ziga xos mas'uliyati, murakkabligi bor. Chunki oddiy hujjatni notarial tasdiqlash ham katta mas'uliyat talab etadi. Ayniqsa meros, ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalarini notarial tasdiqlashda alohida diqqat va e'tibor zarur. Bu ishda amaldagi qonunlarni puxta bilish, chuqur bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda odamlar bilan muomala madaniyati ham alohida o'rin tutadi. Aytaylik, merosni rasmiylashtirish uchun kelgan merosxo'rlarning fe'l-atvori turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim odamlarga qonunning qat'iy talabi yoqmaydi, ya'ni notarius merosga tegishli hujjatlarni to'liq taqdim qilmaguncha tasdiqlamasligi ko'pchilikda e'tiroz uyg'otishi tabiiy. Ammo shoshma-shosharlik bilan bitimni imzolab, keyin pushaymon qilgandan ko'ra, mijozga yotig'i bilan tushuntirish afzaligini Shodiqul aka juda yaxshi biladi. Chunki hamkasblar tajribasida oradan 10 yil o'tib ham merosga davogarlar paydo bo'lib, muammolarga duch kelib sudma-sud yurganlari uchragani ayni haqiqat.

Shodiqul akaning hayotida o'z shiori, o'z falsafasi bor. Inson o'z haq-huquqiniga emas, balki o'z burchini ham bilishi kerak. Qonunni hurmat qilgan odam to'g'ri yashaydi, ko'zlagan maqsadiga erishadi. O'zining 80 yillik umri davomida ana shu aqidaga amal qilgan qahramonimiz shuning uchun ham elda aziz, katta-kichik o'rtasida hurmatli. Hayot yo'lidan saboq olsa arziydigan umr sohibiga tabarruk yosh qatlug' bo'lsin, aziz boshingiz omon bo'lsin, deymiz.

 **Marusa HOSILOVA,**
"Inson va qonun" muxbiri

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorбек Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorбек Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj - 3500
Buyurtma - 2586

Topshirish vaqti - 19:00
Topshirildi - 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishgan narxda

1 2 3 4 5